

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR FAOLIYATI VA “MUSHKIL” RADIFLI
RUBOIY TALQINI**

Shahrizoda Xudayberdiyeva

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti Jurnalistika fakulteti filologiya tillarni
o'qitish o'zbek tili yo'nalishi yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur ijodiy faoliyati va uning qalamiga mansub “mushkil” radifli ruboiysini talqini ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: Zahiriddin Muhammad Bobur, mushkil, g'azal, ruboiy, tuyuq, lirika, adabiyotshunos olimlar.

Bobur o'zbek tarixida tom ma'noda yirik shaxs. Uning olim, zukko adib va dilbar shoir sifatida qoldirgan adabiy meroslari bebahodir. Bobur hukmdor bo'lishiga qaramay, uning majburiyatlaridan ortib yirik-yirik asarlar yozishga muvaffaq bo'lgan. Uning lirikasi adabiyotda o'ziga xosdir. Shubhasiz, lirikasining asosiy mavzusi Vatan, vatan sog'inchi bo'lgan. Atrofdagi insonlarining xiyonati, taxt uchun yaqinlarining dushman bo'lib kurashishi, vatanni birlashtirolmaganidan so'ng tortgan azoblari Va umrining so'nggigacha vatan sog'inchi uning she'riyatiga ko'chgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu mavzular Boburning g'azallarida, ruboiylar, tuyuqlarida keng yoritilgan.

Odatda g'azal va ruboiy sharhiga e'tibor qaratgan har qanday adabiyotshunos olimlar va shu yo'lda ilmiy ish yoqlovchilar ularning badiiy tabiatini yoritishni asosiy maqsad qiladilar. Men esa sharhlar oqchi bo'lgan asarlar, masalan; Boburni bu kabi dard va hasratga boy bo'lgan ruboiylarni yozishga qanday sabab va hodisalar turtki bo'lganligi ko'proq e'tiborimni tortadi.

- Bobur ijodidan “Mushkil” nomli biografik ruhda bitilgan mashhur bir ruboiyga sharh:

Ey yor, sening vaslingga yetmak mushkil
Farxunda hadisingni eshitmak mushkil.
Ishqingni doğu bartaraf etmak mushkil,
Boshni olibon bir sari ketmak mushkil.

Bu ruboiyda Boburning asosiy mavzusi ona yurtga bo'lgan muhabbat va bu zamindan uzoqda yashash davridagi soginchi iztirobidir.

Ey yor, sening vaslingga yetmak mushkil.

“Ey yor”, deb boshlanuvchi chaqiriqda shoir go'zal mahbubaga emas balki, bu yerda tom ma'noda ona yurti, vataniga murojaat qilmoqda. Shoir Hozirgi davrda (Bobur yashagan vaqtda, uning ota makoniga Shayboniyxon hukmronlik qilgan zamonda) u joylarga hukmronlik qilish u yoqda tursin, vatanni qayta ko'rmoqlik mushkilligini aytib o'tadi.

Faxxunda hadisingni eshitmak mushkil. Bu baytni sharh qilishdan oldin oson bo'lishi uchun u davrdagi "farkun" so'zining bugungi zamonamizdagi ma'nosini ta'kidlab o'tish to'g'ri bo'ladi deb o'ylayman. "Farkun"- (arabchada) "yaxshi", "shukuhli", "farahli" degan ma'nolarni ifodalaydi.

Bu baytda Bobur ona vatanida yana qayta baxtli kunlarni kechirish haqida o'ylashga ham botina olmasligini va hattoki vatanining gullab-yashnagan, shukuhli kunlari haqida she'r va dostonlar ayta olmasligidan chin ko'ngildan o'ksinadi va bu (vatansizlikda o'tadigan hayot) yo'lini bosib o'tish juda mushkil ekanligini bayon qiladi.

Ishqingni dog'u bartaraf etmak mushkil.

Bu misrani o'qib, shoirning yurtiga bo'lgan sevgisi qay darajada yuksak ekanligini bilib olish mumkin. Zahiriddin Muhammad Bobur Ona zaminiga bo'lgan mehr va muhabbatni inkor etishning hech iloji yo'qligini, buni pinhon tutishning, bartaraf etishning mushkil ekanligini yoritadi. Uni eslamasdan kuni o'tmaydi go'yoki.

Boshni olibon bir sari ketmak mushkil.

Bu baytda Vataniga bo'lgan sadoqati shunchalar betakrorki, hattoki boshimni olib bir qadam ham ketish mushkildir deb yozadi shoir. Uning vataniga bo'lgan muhabbatini, his-tuyg'ularini namoyon etish juda mushkildir.

Bobur ijodi serqirra ohangdorlik, sermazmunlilik, go'zal satrlar yoritilganlik bilan alohida o'rinni egallaydi. Bobur lirikasida yor vasli, uning go'zalligi, hijron azobi, ayrilik' alamlari, visol quvonchlari go'zal va mohirona ifoda etiladi.

Xazon yaprog'I yanglig' gul yuzung hajrida sarg'ardim,
Ko'rub rahm aylagil, ey lola ruh, bu chehrai zardim.
Sen ey gul, qo'ymading sarkashligingni sarvdek hargiz,
Ayig'ingga tushub bargi xazondek muncha yolvordim.

Shoir o'z lirik she'rlarida har doim odamlarni yaxshilikka,adolat, insonparvarlikka, yuksak insoniy tuyg'ularni qadrlashga chaqiradi:

Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidur,
Har kimki jafo qilsa, jafo topqusidur.
Yaxshi kishi ko'rmag'ay yomonlig' hargiz,
Har kimki yomo bo'lsa, jazo topqusidur.

Zahiriddin Muhammad Bobur lirik she'rlari va tarixiy "Boburnoma" sidan tashqari, islom qonunshunosligi va tasavvufda yaxshi asarlar yaratgan.

Xulosa shuki, adolatli shoh va buyuk shoir Bobur o'zining ma'lum va mashhur asarlari bilan tarixnavis adib, lirik shoir hamda ijtimoiy masalalar yechimiga o'z hissasini qo'shgan olim sifatida xalqimiz ma'naviy madaniyati tarixida o'chmas iz qoldirdi. Shu bilan birgalikda Bobur o'zining serqirra faoliyati va ijod durdonalari bilan jahon madaniyati tarixiga munosib hissa qo'shdilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. V.Zohidov. Boburning faoliyati va ilmiy-adabiy merosi haqida. Kitobda: Bobur. Boburnoma. –T.:1960
2. H.Qudratullayev. Boburning adabiy-estetik qarashlari. –T.: FAN, 1983
3. Stebleva I.V.Semantika gazeley Babura. –M.:1983
4. Gulxan.uz
5. n.ziyouz.com
6. ares.uz